

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 3-bosqich "G" guruh
talabasi

Abdusamatova Dilnoraning tayyorlagan

R E F E R A T I

Mavzu: "Sharq yulduzi" jurnalida 2001-2005- yillarda
chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik
ko'rsatkich va obzor)

O'qituvchi: M.Sheraliyeva

Andijon-2016

**“Sharq yulduzi” jurnalida 2001-2005- yillarda chop
etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik
ko’rsatkich va obzor)**

Reja :

**1. *Kirish.* “Sharq yulduzi” jurnalida 2001-2005-
yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarga
umumiy tavsif.**

**2 “Sharq yulduzi” jurnalida 2001-2005- yillarda
chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarning
bibliografik ko’rsatkichi.**

“Sharq yulduzi” jurnalida 2001-2005- yillarda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar

Yurtimizda mustaqillik shabadalari esa boshlaganiga ham yigirma besh yil to'lmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi xayotimizning hamma sohalarida o'z aksadosini berayapti. Istiqloldan keyin barcha sohalar qatori badiiy adabiyotimiz ham rivojlanib, takomillashib bordi. O'z adabiyotimizga e'tibor kuchaydi, o'zligimizni angladik. Sobiq sho'ro hukmronligi davrida qoralangan, nohaq o'ldirilgan, ijodi oyoqosti qilingan dilbar ijodkor-adiblarimiz mustaqillik sharofati ila nomlari qayta tiklandi. Ularning adabiyotimizga qo'shgan ulkan hissalarini munosib taqdirlandi. Bu borada O'zbekiston diyorida tashkil etilgan, chop etilayotgan gazeta, jurnallarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, “Sharq yulduzi” jurnali ham katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyotimizning yorqin va bizga shu kungacha no'malum bo'lib kelgan buyuk iste'dod sohiblari, adib, shoirlar haqida, xalqimizning boy ma'naviyati, qadriyatlari, urf-odatlarini hamda ajdod-u avlodlar uchun ma'lum va noma'lum bo'lgan xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiriladi. Ushbu jurnalning aloxida bir adabiyotshunoslik nomli bo'limining bo'lishi va bu bo'lim jurnalning salmoqli joyini band qilishi ham diqqatga sazovordir.

Xususan, jurnalning 2001-2005- yillarda chop etilgan maqolalar mavzularining rang-barangligi, serma'noliligi bilan axamiyatlidir. Aynan shu yillarda Malika Rustamova, Ulug'bek Abdullayev, Dilmurod Quronov, Shoiri Doniyorova, Yo'ldosh Solijonov, Umarali Normatov, Abdulla Ulug'ov, Salimaxon Eshonova, Nilufar Mirzayeva va boshqa ko'plab iste'dodli mualliflarimiz maqolalari bilan yaqindan tanishishimiz mumkin.

Ushbu yillardagi maqolalar tarkibida mumtoz adabiyotimiz vakillariga bag'ishlangan maqolalar ham talaygina ekanligi kishini quvontirmay qo'ymaydi. Tarixsiz kelajak yo'q deb yurtboshimiz bejiz aytmagan, sababi adabiyotimizning o'tmishini ham, bugunini ham mumtoz kuy-u ohanglarisiz, she'r-u dostonlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada Vahob Raxmonov, Olim Davlatpur, Nurboy

Abdulxakim, Matyoqub Qo'shjonov, Xurmatjon Fikrat, Difuza Jumanioyozova, Baxriddin Umrzoqov va boshqa ijodkorlarimiz faolligini ko'rishimiz mumkin. Ular orasida, ayniqsa, Navoiyshunoslikka va Boburshunoslikka bag'ishlanganlarini aytib o'tmay ilojimiz yo'q. Jurnalning 2003-yil 1-sonida Xurmatjon Fikratning "Navoiyning ishq qarashi" nomli maqolasida buyuk bobomizning ishqiy qarashlari uning g'azallaridan namunalar orqali yoritib berilsa, Olim Davlatpurning "Navoiy she'riyatida "Qur'on" oyatlari va hadislar talqini" maqolasida esa "Qur'on" va hadislardan moxirona foydalanilganligi haqida ma'lumot olishimiz mumkin. . Matyoqub Qo'shjonovning "Ishq ahli" romani va undagi Navoiy va Guli munosabatlari ham jurnalning 2001-yilgi e'tiborga loyiq maqolalardan sanaladi. Shukur Jonboyevning "Navoiy tilshunoslikda" deya nomlangan maqolasida Navoiy asarlari bo'yicha yaratilgan luga'tlar to'g'risida biz uchun nixoyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Difuza Jumanioyozovanning "Bobur va tasavvuf" nomli maqolasida Bobur va tasavvuf uning bu boradagi qiziqishlari ijodkorning shox asari "Boburnoma" haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi. bunday maqolalarni xisoblaydigan bo'lsak sahifalar kamlik qiladi.

Mazkur yillar oralig'ida chop etilgan maqolalar ichida jadidchi olimlarimiz hayoti va ijodini o'rganishga ham chuqur kirib borilgani bizda shukronalik xissini uyg'otmasdan qoldirmaydi, boisi mustaqillikdan avval ularni o'rganish ta'qiqlangani, ularning shaxsi qoralanganligi sababli adabiyotimiz qahramonlarini o'rganishning imkoni bo'lmagan edi. Mustaqillik sharofati bilan ularning nomlari oqlanib, ijodlarining asl mohiyatini ochish imkoni tug'ildi. Xususan, bu borada jurnalistlarimizning xizmatlari kattadir. Toxir Qaxxor, Salimxon Tillayeva, Abduraxim Soliyev, Abdug'ofur Rasulov, Muxtor Xudoyqulov kabilarning maqolalari orqali jadidlarimiz to'g'risida ma'lumot olishimiz mumkin. Muxtor Hudoyqulovning "Felyetonlar Qirol" nomli maqolasida Abdulla Qodiriyning xajviy asarlari xaqida, uning o'zbek xajviy

publitsistikasiga qo'shgan ulkan xizmatlari haqida fikr bildiriladi. Abduraxim Soliyevning "Men-da sendek yuragimdan urildim" maqolasida shoir, olim, yozuvchi, jurnalist, va ko'plab xislatlar sohibi bo'lgan Abdurauf Fitratning dramaturgiya sohasidagi yutuqlari bilan tanishishimiz mumkin bo'ladi. Abdug'ofur Rasulovning "Cho'lpon" romanining tarixiy xususiyati va tarkibi nomli maqolasida Naim Karimovning shu nomli romani orqali adib shaxsi yoritib beriladi. Shuni qo'rqmay aytishimiz mumkinki xalq uchun, millat uchun jonini fido qilgan insonlarning xotirasi abadiy qoladi. "Elbek ijodini chet ellarda o'rganilishi" nomli maqola esa yana bir bor qalbimizni g'urur-iftixor tuyg'usiga to'ldirishi shubxasiz.

Shu yillarda chop etilgan maqolalar tarkibida mustaqillik davrida yaratilgan asarlarning taxliliga bag'ishlanganlari ham oz emas. 2005-yil 1-sonidagi Malika Rustamovanning "Nasrda ruxiyat tasviri" maqolasi ham aynan shu haqda, maqolada "Fojeadan go'zallik yaratish mumkinmi?"-degan savol o'rta tashlanadi. Va bu savolga Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" nomli asaridan misollar keltirib sharxlanadi. Asarda botqoqlik bu maqsadsizlik, ezgu xissizlik, idroksizlik, faxmsizlik va befarqlikka qiyos qilinadi. Yozuvchining "Ozod qushlar" nomli asarida hamma narsasi yetarli, o'z baxtiga erishgan, ammo hayotda qandaydir bir mo'jizani kutib yashayotgan inson haqida hikoya qilinadi. Asar insonni bor narsaga shukur qilishga, baxtni uzoqdan emas o'zidan qidirib topishga va baxt doim u bilan birga ekanligiga ishonch xissini uyg'otishga xizmat qiladi. Maqolada ezgulik qanotidagi umr yuksaklikni zabt etadi, ezgulik ezgulikni yaratadi degan g'oya ilgari suriladi.

Begali Mo'minovning "Bir qissa taxlili xususida" maqolasida E. Azamovning "Javob" nomli qissasi haqida ma'lumot beriladi. Muallif asar qaxramoni Elchiyevga juda qattiq achinadi, g'ashi keladi. Qumursqaga xos tirikchilik ko'rib, jo'ngina ro'zg'orchilik qilib, jur'atsiz, qat'iyatsiz kun kechirayotgan;

taqdir savollari oldida o'zini ojiz xisoblab, imkonsiz deb bilgan bunday insonlar haqida fikr bildiradi. Chindan ham bu kabi kimsalarni jamiyatimizga tushgan qurtlar desak yanglishmagan bo'lamiz.

2003-yil 3-sonida bosilgan O'g'iljon Panayevaning "Amerika chindan zo'r joy" nomli maqolasi ham alohida ajralib turadi. Bunda Omon Matjon ijodida Amerika mamlakatlarining talqini haqida ma'lumot beriladi. Shoirning "Nima bizga Amerika?" she'rida Amerika ozod va obod vatanligi, o'z mamlakati esa mustamlaka, qaram mamlakat ekanligini kinoya pichinglar orqali bayon qilinadi.

E'tiborimni tortgan yana bir maqola jurnalning 2003-yilning 3-sonida chop etilgan Jumaboy Yusupovning "Vaxshiy odatning epik talqini" maqolasidir, sababi bu maqolada qadimda qariyalarning o'limiga sabab bo'lgan turli irim-sirimlar haqida fikr bildiriladi. Ma'lumki, dono xalqimiz "Qarisi bor uyning parisi bor"- deb bejiz aytmagan, shunday ekan ularga ziyon yetkazadigan har qanday irim-sirim, bizningcha, noo'rindir. Xalqimizga xos bo'lgan qadriyatlarni esa jurnalning 2001-yil 4-sonida nashr etilgan Madinaxon Imomkarimovanning "Milliy qadriyatlarni aks ettirishda adib mahorati" nomli maqolasidan topishimiz mumkin. Unda o'tkir qalam sohibi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida qo'llangan qadriyatlarimiz, va ularning ahamiyati to'g'risida fikr bildiriladi.

Junalistlarimiz maqolalari orasida esa yana Beruniy, A. Jomiy, Ogaxiy, Hamid Olimjon, G'ofur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, A. Majidiy, X. Xudoyberdiyeva, Mirtemir, A. Oripov, E. Vohidov, X. Do'stmuhammad, X. Davron va ko'plab yangi ijodkorlarimiz hayoti va ijodi, yaratilayotgan asarlarning yutuq va kamchiliklari, yangi kirib kelayotgan janrlar, tanqidchilik, tarjimonlik sohasidagi yutuqlar o'z ifodasini topganlari borki ularni ta'riflab adog'iga yetib bo'lmaydi.

“Sharq yulduzi” jurnali. 2001-yil.

1. Qozoqboy Yo’ldoshev “Dastlabki dovon belgilari” 2001/1

Maqolada o’zbek adabiyotimizga kirib kelayotgan yangi janrlar va unda qalam tebratayotgan ijodkorlar haqida fikr bildiriladi. Xususan, Faxriyor, B.Ro’zimuhammad, Nazar Eshonqul, Shukur Holmirzayev, A.Azam va Ilxom Xusaynlar ijodidagi ikki so’zli she’r, imlo qoidalarisiz she’r va boshqa turdagi asarlardan namunalar keltiriladi.

2. Matyoqub Qo’shjonov “Ishq ahli” romani to’g’risida 2001/1

Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Omon Muxtorning “Ishq ahli” romani to’g’risida so’z boradi. Bu roman Navoiy obrazini yaratish va, asosan, Navoiy va Guli muxabbatlari asosidan tashkil topadi. Umuman, O.Muxtorning bu asari faqat navoiyshunoslik, navoiyxonlik olamida o’ziga xos badiiy tajriba bo’lmay, balki o’zbek adabiyotining ko’zga tashlanadigan muxim yangiligi ekanligi maqolada o’z aksini topadi.

3. Abduraxim Sa’diy “Ulug’ kishilar” 2001/2

Bu maqolada Nizomulmulk G’azzoliyning hayot yo’li, uning asarlari, ilmi, falsafasi, uslubi, tasavvufiy qarashlari va boshqa jihatlari aks ettiriladi.

4. Rasul Nosirov, Toxir Mahkamov “Beruniy: bilishda xolislik va xaqiqt me’zonlari” 2001/2

Maqolada Beruniy tomonidan ilmiy tadqiqotda xolislik, beg’arazlik tamoyillari masalasiga alohida e’tibor bilan qaralishi, muhim ahamiyat kasb

etishi, ularning komil ishonch bilan nazariy tafakkur sohasiga kirib kelib, mustaqil maqomga ega bo'lishi aks ettiriladi. Beruniy fikrlari Ibn Sino, Farobiy fikrlari bilan solishtiriladi.

5. Salimaxon Eshonova “Inoyat istagan ko'ngil” 2001/3

Ushbu maqola Mirzaxon Honiy hayoti va ijodiga bag'ishlanadi. Xususan, Mirzaxon Honiyning hudosiz jamiyatning mafkuraviy tazyiqi ostida ma'naviy g'ofillikga maxkum etilayotgan xalqni din-diyonatiga, o'zligiga qaytarish maqsadida musulmon yurtining qalbi, dardi, tili bo'lib, ijod qilishga intilishi namunasi sifatida yaratgan “Nozimbek va Kozimbek” dostoni haqida so'z boradi.

6. Muhtor Hudoyqulov “Felyetonlar qiroli” 2001/3

Maqolada A.Qodiriyning yigirmanchi yillarning boshida xajviy publitsistik asarlari, o'zbek xajviy publitsistikasining takomiliga katta xissa qo'shdi, uni shakl janrlar, ijtimoiy kulgi turlaridan foydalanish va xajviy obrazlar, tiplar yaratish bilan boyitganligi ko'rsatiladi. Adibning “Hoy hudoy urg'onlar”, “Toshkent boylari”, “Eshonlarimiz”, “Kalvak mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo'lat tajang nima deydir” asarlaridan namunalar keltiriladi.

7. Abdulla Ulug'ov “Adabiy tanqid mavqei” 2001/3

Ushbu maqolada Matyoqub Qo'shjonov va Ozod Sharofuddinov adabiyotimizning chinakam muhibi bo'lgan ijodkorlarning xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida munaqqid, muallim, mutarjim, yozuvchi publitsist, noshir sifatidagi sidqidildan qilgan xizmatlari haqida so'z yuritiladi.

8. Shoira Isayeva “Tasvirda xolatlar chegarasi” 2001/3

Maqola Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinası” romani taxliliga bag’ishlanadi. Bu romanning naqadar keng qamrovda yaratilganligi hamda asar nafaqat 14-15-asr uchun taaluqli, balki u barcha davr uchun birdek dolzarb mavzuda ekanligi maqolada aks etadi. Yana maqolada romanning yutuqlari misollar bilan isbotlab berilgan.

9. Otabek Jo’raboyev “Murshidi Farg’ona kimdur!?” 2001/3

Ushbu maqola Ziyovuddinxon Xaziniy hayoti va ijodiga bag’ishlanadi. Xaziniyning shoirlik mahorati va tarix san’atidan qanchalik ustalik bilin foydalanganligi misollar bilan maqolada o’z aksini topadi.

10. Nazira Toshpo’latova “Uslub va zamonaviylik” 2001/3

Maqolada adabiyotda yuz berayotgan sifat o’zgarishlari, obrazlarni yaratishda turli uslublardan foydalanilayotganligi haqida fikr yuritiladi. Unda Fitrat, Alber Kamyu, Nazar Eshonqul, Omon Muxtor va ko’plab ijodkorlar yaratgan obrazlari hamda ularning uslublari haqida ma’lumot beriladi.

11. Ibrohim Karimov “Milliy istiqlool g’oyasining “Avesto”dagi falsafiy ildizlari” 2001/4

Bu maqolada qadimiy asarlardan biri bo’lgan “Avesto” va uning g’oyalari haqida yoziladi. Maqolada yana buyuk shaxslarning asar haqidagi fikrlari ham berib o’tiladi, xususan, Gegel, italyan olimi Bagista Viko, Islom Karimovlar fikrlari va bashqalarning qarashlari aks etadi.

12. Homidjon Homidiy ““Avesto” va adabiyot” 2001/4

Maqolada “Avesto” ko’plab tarmoqlarning boshi ekanligi va shu qatorda adabiyotning ham bir qomusiga o’xshashligi aks etadi. Zero, Turon-u

Xuroson xalqlarining qadimgi she'riyati, nasri haqida mukammal tasavvur tug'diradigan dalillar mavjudligi maqolada o'z aksini topgan.

13. Yo'ldosh Solijonov “Ikki eshik orasi” dan “Lolazor” ga o'tguncha 2001/4

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari hamda Murod Muhammdo'stning “Lolazor” asarlari o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlari hamda ikki bu buyuk asarlar yaratilgan zamon tafovutida yuzaga kelgan o'zbek nasridagi o'zgarishlar, yutuqlar va kamchiliklar aks etadi.

14. Madinaxon Imomkarimova “Milliy qadriyatlarni aks ettirishda adib mahorati” 2001/4

Maqola O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidan o'rin olgan milliy qadriyatlarimizni aks ettirishga bag'ishlanadi. Ular orasida bolani beshikka belash va u bilan bog'liq qadriyatlar ham o'rin olgan. Milliy qahramon obrazini yaratish, milliy qadriyatlar tasvirini xaqqoniy ko'rsatish adibning barcha asarlari uchun xos.

15. Shoira Doniyorova ““Bozor” romani haqida yana bir gap” 2001/4

Bu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning “Bozor” romani taxlili haqida so'z boradi. Roman boshidan oxirigacha bozor, hayot va inson taqdirini kuzatish asnosidagi tasvirlar bilan boyitilganligi, hamda adibning roman yozishdan qanday badiiy niyat ko'zlaganligi ushbu maqolada o'z aksini topadi.

16. Shoira Doniyorova “Ustod Sharif Nurhon hikmati” 2001/4

Ushbu maqolada Ustod Sharif Nurhon hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar beriladi. Yana maqoladan shoirning g'azallaridan ham namunalar keltirilgan.

“Sharq yulduzi” jurnali. 2002-yil.

17. Toxir Qaxxor “Elbek ijodining chet ellarda o'rganilishi” 2002/1

Maqolada Elbek ijodining chet ellarda o'rganilishi, xususan, Turkiyada olib borilayotgan tadqiqotlar va bu sohada ish olib borayotgan olimlar haqida ma'lumot beriladi. Uning she'rlaridan namunalar keltiriladi.

18. Salimxon Tillaxonov “Xotiralar” 2002/1

Maqolada taniqli ijodkorlar Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Sanjar Siddiq, Mashriq Yunus, Elbek, Abdulla Qodiriy, Hasanqori Foniylarning hayotiy faoliyatlari, hamda “Turk adam markaziyot”, “Ittihodi taraqqiy” tashkilotlari haqida ma'lumotlar beriladi.

19. Jumaboy Yusupov “Evrilish motiviga doir ba'zi mulohazalar” 2002/1

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodidagi miflar haqida, aniqrog'i, evrilish haqidagi miflar to'g'risida so'z boradi. Yana maqolada evrilishning turlari: suv vositasida evrilish, xarakat vositasida evrilish, jonzo libosini yechib inson qiyofasiga evrilish va boshqa turlariga miflardan misollar keltirish orqali ko'rsatib beriladi.

20. Zulfiya Pardayeva “O'zbek romani: talqin va taxlil” 2002/1

Ushbu maqolada mustaqilligimizdan yaratilayotgan romanlar to'g'risida so'z boradi. Maqolada o'zbek romanchiligimizda ananaviylikdan chekingan holatlari, yangi yo'nalishlari va yutug'lari romanlar misolida aks ettiriladi.

21. Muhiba Hamidova “Ko’ngul kuylari” 2002/1

Maqola O'zbekiston xalq shoirasi Xalima Xudoyberdiyeva ijodiga bag'ishlanib, uning g'azal va she'rlaridan namunalar keltirilgan.

22. Raxima Shirinova “E’tiqodim.... Vujudimning bir bo’lagi” 2002/1

Maqolada roman janri hamda fransuz romanlari haqida so'z boradi. Fransuz yozuvchisi Prosper Merimining “Karl 9 saltanatining yilnomasi” asaridagi diniy muammolarning aks ettirilishi ham ko'rsatib beriladi.

23. Baxriddin Umrzaqov “Jomiy- Xojagon tariqining yetuk vakili” 2002/2

Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi tasvirlanadi. Uning, asosan, riyoziyat ilmidagi ishlari, uchrashuvlari haqida bayon qilinadi.

24. Dilfuza Jumaniyozova “Bobur va tasavvuf” 2002/2

Bobur va tasavvuf uning bu boradagi qiziqishlari ijodkorning shox asari “Boburnoma” hamda Badriddin Xiloliyning “Shoh va gado” asarlari haqida ma'lumot beriladi.

25. Shavkat Hasanov “Davr va doston” 2002/2

Dostonlar va davr a'loqasi, maqolada bu juftlik Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l”, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Usmon Azimning “Quyoshli olam” dostonlari orqali yoritib beriladi.

26. Alimardon Hayitov “Shakl izlanishlarining badiiyatga ta'siri” 2002/2

Ushbu maqolada shakl izlanishlari tarafdorlaridan Ikrom Otamurodning “Yobondagi yolg’iz daraxt” dostonida tuyg’ular orqali she’r shaklini berish yo’lidan foydalanilganligi aks ettiriladi.

27. Dilmurod Quronov “Hamid Olimjonni bilasizmi?” 2002/2

Maqolada Hamid Olimjonning hayoti, ijodi, uning “Muqanna” dramasi o’ziga xos xususiyatlari, drama uchraydigan obrazlarning voqealar rivojida o’rni, drama tasvirlangan urush davrining ijtimoiy-siyosiy holati haqida fikr-mulohazalar beriladi.

28. Abdulhamid Holmurodov “Eskirmas saboqlar” 2002/2

Maqolada o’zbek adabiyotida tarixiy mavzuni shakllanishida o’z o’rniga ega bo’lgan adib Mirkarim Osimning tarixiy asarlari, xususan, “To’maris”, “Shiroq”, “Ibn Sino” qissasi, “Temur Malik”, “Zulmat ichra nur”, “Singan setor” va boshqa tarixiy asarlari haqida fikr mulohazalar beriladi.

29. Shukur Jonboyev “Navoiy tilshunoslikda” 2002/3

Ushbu maqola Alisher Navoiyning tilshunos sifatida yuritgan faoliyatdan ma’lumot beradi. Maqola Navoiy asarlari bo’yicha yaratilgan “Sanglox”, “Abushqa”, “Badoe al-lug’at”, “Lug’ati Atrokiya” va boshqa lug’atlar haqida ham ma’lumot beradi.

30. Nurboy Abdulhakim “Ilm andog’ ganji nafidur...” 2002/3

Ushbu maqola Muhammad Rizo Ogaxiyning ijodi haqida ma’lumot beradi. Va uning asarlaridagi ilm haqidagi fikrlari bayon qilinadi. Adibning “Zubdat ut-tavorix” asaridan namunalar va ularning izoxi hamda asar tarkibidan o’rin olgan shohning qanday xislatlarga ega bo’lishi va boshqa qiziqarli ma’lumotlar maqolada o’z ifodasini topadi.

**31. Gulbaxor Yusupova “Gavharshodbegimning nurli siymosi”
2002/3**

Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” asari bilan tarixiy romanchiligimizda o’ziga xos sahifa ochdi, sababi shuki u temuriylar xonadonining Gavharshodbegimdek mashhur malikasini yangicha va hayot xaqiqatiga monand nurli siymo sifatida gavdalantirib berdi. Ushbu maqolada shu asar va uning obrazlari haqida ma’lumot beriladi.

32. Yo’ldosh Solijonov “Nuqtai nazar imkoniyatlari” 2002/3

Maqola Omon Muxyor va Murod Muhammaddo’stning asarlari asosida kinometografik epik bayon uslubini ifoda qilish haqida ma’lumot beradi.

“Sharq yulduzi” jurnali. 2003-yil.

33. Ulug’bek Abdullayev “Xulagu taxti uchun kurash” 2003/1

Sohibqiron Amir Temur davri va uni tadqiq etgan yirik olimlardan biri Ibrohim Mo’minovning ijodi haqida maqolada ma’lumot beriladi. Maqolada sohibqironning siyosiy kurashlari Sharofuddin Ali Yazdiy asari, Nizomiddin Shomiy ma’lumotlari asosida yoritib berilgan. Ushbu manbalar asosida sohibqiron yurishlari xronologik ketma-ketlikda berilgan.

34. Xurmatjon Fikrat “Navoiyning ishq qarashi” 2003/1

Maqolada Alisher Navoiyning ishqiy qarashlari uning g’azallaridan namunalar keltirib yoritib berilgan. Navoiy dunyo o’tkinchi, foniidir; unga ko’ngil berish xato degan qarashni ilgari surishi va u “Ming yil yashab butun jaxonni olsangda, hamon bir kuni rixlat etgusidir.”- deydi

shoir. Navoiyning ishq qarashida asosiy o'rinda turuvchi majoziy ishq vositasida sodir bo'ladigan ilohiy bir ishq bo'ladi.

**35. Salima Umarova “Hech kim bir-birining ko'ngliga bormas”
2003/1**

O'zbekiston xalq shoirasi Xalima Xudoyberdiyeva saylanmasini o'qib.

Ushbu maqolada Xalima Xudoyberdiyevaning shoirning baxti, shoirning qudrati, shoirning yutug'I haqidagi fikrlari o'z ifodasini topadi. Shoiraning ilohiy muhabbat to'g'risidagi qarashlari ham maqoladan o'rin olgan.

36. Iso Jabborov “Tarix va zamon solnomachisi” 2003/2

Maqola O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning, asosan, “Ulug'bek xazinasini”, “Ko'hna dunyo”, “Adolat manzili” romanlari asosida yozilgan. Yozuvchi asarlarida tarixiy buyuk shaxslarimiz Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va “Adolat manzili” qaxramonlari Suyun Burqut, Marjinoylar haqida yozganlari taxlil qilinadi.

**37. Abdurahim Soliyev “Men-da sendek yuragimdan urildim”
2003/2**

Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon”, “Hind ixtilolchilari” dramalari haqida fikr yuritiladi. “Hind ixtilolchilari” dramasi oxirida inqilobchilarning quyidagi so'zlari “Yurtimizni qutqaramiz”, “Yashasin istiqbol” kabi chaqiriqlar, chorlovlar va o'tgan asrning 20-yillaridagi xalqimiz qalbining tubidan yangragan nidolar maqolaning bosh mavzusi hisoblanadi.

**38. Xakimjon Karimov “Insoniy iztiroblar va tuyg'ular
xaqqoniyligi” 2003/2**

Maqolada insoniy iztiroblarni taxlil qilish, insonning barcha faoliyati, ruhiy faoliyati, borliqqa va odamlarga bo'lgan munosabati, o'y fikri, ichki kechinmalarini ifodalashda Normurod Norqobilovning "Oriyat" hikoyasi qahramoni Xusan Polvon misolida ochib berilgan.

39. Oybuvi Ochilova "Yam-yashil daraxt" 2003/2

Maqola yozuvchi va publitsist Ashurali Jo'rayevning "Senga ko'ngil bersam" kitobi haqida. Unda "Esar Jayxun shamollari", "Bexushlik", "o'tli kosa", "Sozda tug'yon" singari esselari, "Tanovar" essesi, "Fikr gullari" she'ri, Sud ocherklari va boshqa turli janrdagi asarlari taxlilidan tashkil topadi.

40. Zilola Xo'janiyozova "Zaxarxanda" 2003/2

Ushbu maqola Efraim Sevelaning "Samalyotni to'xtating, tushib qolaman" qissasi tarjimasi asosida yozilgan. Bu asar o'tgan asr xalqimiz boshidan kechirgan og'ir kunlarni aks ettirgan asardir. Aynan shu asarning mohir tarjimon Ozod Sharofuddinov tarjimasi orqali yetib kelishi, ba'zi kamchiliklariga qaramay qissaning asosiy ma'no mazmunini to'la to'kis xolda kitobxonlarga yetib keldi.

41. Jumaboy Yusupov "Vaxshiy odatning epik talqini" 2003/3

Maqolada qadimda qariyalarning o'ldirilishiga sabab bo'lgan turli xil irim-sirimlar haqida malumot beriladi. 60 yoshdan yuqori bo'lgan chollarni o'ldirib yuborish irimi, bir yigit otasini o'limdan saqlab qolishi haqidagi rivoyat va uning variantlari, ajdodlar kulti to'g'risidagi Strabon, F. Paudler, Snasarev, J.Dyumezillarning qimmatli malumotlari maqolada o'z aksini topadi. Yana maqolada qariyalarni qay tarzda fojeali tarzda o'ldirilishi haqidagi afsonalar ham o'rin olgan.

42. Nigora Hayitaliyeva “Zulfiya ijodida hayotga muhabbat tarannumi” 2003/3

Zulfiyaning sermaxsul ijodi, uning dilbar she’rlari tahlili maqolada o’z aksini topadi. Shoiraning hayotida baxt, ishq, quvonch, boqiylik, tinchlik so’zlarining ahamiyati.

43. Nargiz Mamatqulova “Zamonaviy she’riyatda lirik fojeli” 2003/3

Ushbu maqola lirik she’riyatda fojeli qay tarzda bo’lishi haqida va bunda Suvon Mel, A. Oripov fikrlari, Faxriyor she’rlari izohlari to’g’risida ma’lumot beradi.

44. Malika Rustamova “Uslub jilolari” 2003/3

Maqolada Shukur Xolmirzayev va Xayriddin Sultonovning o’tgan asrning 70-80-yillarida yaratgan qator hikoyalari va ularning qisqaacha mazmuni haqida ma’lumot beriladi.

45. Zulxumor Mirzayeva “Abdulhamid Majidiy va uning inglizchalashtirilgan she’ri xususida” 2003/3

AQShning Kolumbiya universitetida jadidchilik masalalarini o’rganish markazida o’z ilmiy faoliyatini davom ettirayotgan Edvard Olvors ijodi haqida ma’lumot beriladi. Uning o’zbek jadidchilaridan Abdulhamid Majidiyning ijodini o’rgangani va uning she’rlarini inglizchaga qilgan tarjimasi aks etadi. Asosan, A.Majidiyning “Bog” she’rining tarjimasi va uning sabablari to’g’risida fikr yuritiladi.

46. Abdulla Ulug’ov “Tiniq tasvirlar ta’siri” 2003/4

Ushbu maqolada oilaviy-maishiy muammolar aks etgan asarlar haqida ma’lumot beriladi. Xususan, Shoyim Bo’tayevning “Sho’rodan qolgan

odamlar”, Abduqayum Yo’ldoshning “Otchopar”, Xurshid Do’stmuhammadning “Jim o’tirgan odamlar”, Zulfiya Qurolboy qizining “muhabbat va nafrat”, Eshqobil Shukurning “Qo’riqxonada”, Abulqosim Mamarasulovning “Oysuluvning ko’z yoshlari”, “Qarib quyilmagan muxabbat”, Ismoil Shomurodovning “Ikki izquvar” asarlarini qisqacha mazmuni haqida ma’lumot beriladi.

47. O’g’iljon Panayeva “Amerika chindan zo’r joy” 2003/4

Maqolada Omon Matjon ijodida Amerika mamlakatlarining talqini haqida ma’lumot beriladi. Shoirning “Nima bizga Amerika?” she’rida Amerika ozod va obod vatanligi, o’z mamlakati esa mustamlaka, qaram mamlakat ekanligini kinoya pichinglar orqali bayon qilinadi. Shoirning yana “Klod Mone chizgan manzara” nomli she’rida ijodkorning Nyu-York muzeyidan ta’sirlangan holatdagi tasviri tushirilgan. U bu she’rida ham kinoya piching usullaridan foydalanadi va yurtini holiga qattiq achinadi.

48. Umida To’laganova “Badiiy asarning joni” 2003/4

Ushbu maqolada badiiy asarning joni nima ekanligi haqida fikr yuritiladi. Pafosni turli adiblar asarlari misolida ko’rsatib beriladi. Chinakam asar tug’ilmasdan oldin uning ohangi paydo bo’ladi. Bu g’oya emas, syujet ham emas, aynan, ohangdir. Mana shu ohang adibni qo’lidan sudrab kelib, stolga mixlab qo’yadi. Asarning joni degani mana shu bo’lsa kerak”- deb yozadi O’tkir Hoshimov.

“Sharq yulduzi” jurnali. 2004-yil.

49. Vaxob Raxmonov “Soz va ma’no sehgari” 2004/1

Maqolada Bobur ijodida ko'p qo'llanilgan tabu va iyhom san'ati hamda undan qanday ustalik bilan foydalanib yaratgan betakror g'azallari haqida ma'lumot beriladi.

50. Shoiri Ahmedova "Adabiy tanqidiy maktub" 2004/1

Maqolada adabiy tanqidiy maktub qanday tuzilishi haqida va bu G'ofur G'ulom ijodi misolida batafsil yoritib beriladi. Adib yaratgan maktublar mazmun-mundarijasi ham maqolada o'z aksini topadi.

51. Yo'ldosh Solijonov "Romanning oydin yo'li" 2004/1

Bu maqolada romanlar yaratilishi va ularning kamchiliklari to'g'risida fikr bildiriladi. Maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romani va Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanlarining yutuq va kamchiliklari haqida fikr-muloxazalar beriladi.

52. Olim Davlatpur "Navoiy she'riyatida "Qur'on" oyatlari va xadislar talqini" 2004/2

Maqolada Navoiy "Qur'on" va hadislarda bayon etilgan mangu barhayot g'oyalarni o'z asarlariga singdirib, ularga yangi jilo ruh bag'ishlash yo'lida ishora san'ati va boshqa yuzlab badiiy vositalar, turli usullardan mahorat bilan foydalanganligi ko'rsatib beriladi.

53. Umarali Normatov O'zbek oyim va uning adabiyotdagi izdoshlari" 2004/2

O'zbek adabiyotida unutilmas milliy obrazlar va ular ichida O'zbek oyimning o'ziga xos va mos jihatlari va undan qolishmaydigan Farmonbibi va uning xatti-xarakatlari haqida va "Kelinlar qo'zg'oloni" spektaklining chet ellarda namoyish etilishi haqida maqolada ma'lumot beriladi.

**54. D. Quronov, A. Hamroqulov “Zamonga o'tmishdan bir nigoh”
2004/2**

Maqolada Mahmud Tarobiy mavzusidagi ikki buyuk asar, Oybek va Maqsud Shayxzodalarning asarlaridan parchalar hamda ularning tugallanmay qolish sabablari keltiriladi.

**55. Hofiz Abdusamatov “Mangulikdan joy olgan- yashar abadiy”
2004/3,4**

Maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi haqida ma'lumot beriladi, asardan parchalar keltiriladi.

Na kerak Samarqand la'l-u tillasi?

Raxmat derdim bo'lsa mo'g'ul kallasi.

**56. Abdug'ofur Rasulov “ “Cho'lpon” romanining tarixiy xususiyati
va tarkibi” 2004/3,4**

Maqola Naim Karimovning “Cho'lpon” romani to'g'risida. Cho'lponning qanday shaxs bo'lganligi, uning ijodidagi she'riyat, nasr, drama va ularning yuzaga kelish sabablari roman misolida yoritib beriladi.

“Sharq yulduzi” jurnali. 2005-yil.

57. Malika Rustamova “Nasrda ruhiyat tasviri” 2005/1

Ushbu maqolada “Fojeadan go'zallik yaratish mumkinmi?”-degan savol o'rta tashlanadi. Va bu savolga Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” nomli asaridan misollar keltirib sharxlanadi. Asarda botqoqlik bu maqsadsizlik, ezgu xissizlik, idroksizlik, faxmsizlik va befarqlikka qiyos qilinadi. Yozuvchining “Ozod qushlar” nomli asarida o'z baxtiga erishgan, ammo hayotda qandaydir bir mo'jizani kutib yashayotgan inson haqida hikoya qilinadi. Asar insonni bor narsaga shukur qilishga undaydi.

Yozuvchi Shodiqul Hamroning “Qora tun”, “Qaqnus qanotidagi umr” qissalarining qisqacha mazmuni xam maqoladan o’rin olgan. Maqola ezgulik qanotidagi umr yuksaklikni zabt etadi, ezgulik ezgulikni yaratadi degan g’oya ilgari suradi.

58. Nilufar Mirzayeva “She’riyatda tarixning badiiy talqini”
2005/1

Maqolada tarixning shoirlar ijodidagi badiiy talqini Xurshid Davron poeziyasi misolida ko’rsatib beriladi. Uning “Jangchi haqida rivoyat” nomli asarida shoir o’zini jangchi misolida yoritadi. U ozodlik, erk uchun kurashgan qahramonlarimizni ham zaxmatli mehnatini nazardan chetda qoldirmaydi. Uning “Spitamen qo’shig’i” she’rida Spitamen qilichi ozodlik ramzi sifatida tasvirlabadi. Xurshid Davron she’rlarida To’maris, Shiroq, Spitamen, Qurbonjon ona, Nomozbotir va boshqa xalq qahramonlari, Mahmud Qoshg’ariy, A. Navoiy, Z.M.Bobur kabi allomalar; A. Qodiriy, Behbudiy, Cho’lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Fayzulla Xojayevdek millatimiz istiqlolimiz istiqboli uchun kurashgan fidoyi insonlar timsoli yorqin ifodalangan.

59. Gulchehra Imomov “Hikoyada badiiy sintez va ramziy tasvir”
2005/2,3

Yozuvchi qo’llagan o’tmish bilan zamonning sintez xosilasi hikoyaga o’ziga xos falsafiy rux va falsafiy talqin bag’ishlaydi. Umuman asarda ijodkor uzoq o’tmish va hozirgi zamon muammolarini sintezlashda ijodkor birinchi galda, o’zi yashayotgan davr hamda jamiyatning dolzarb muammolaridan kelib chiqishi, ularni kitobxonga aniq va ta’sirli yetkazishga xizmat qiluvchi ramziy tasvirdan o’rinli foydalana olishi zarurligi ko’rsatib beriladi.

60. Begali Mo’minov “Bir qissa taxlili xususida” 2005/2,3

Ushbu maqolada E. Azamovning “Javob” nomli qissasi haqida bildirilgan

fikrlar aks ettiriladi. Muallif asarda Elchiyevdek shu choqqacha mudrab ikkilanib yashayotgan qumursqaga xos tirikchilik ko’rib, jo’ngina ro’zg’orchilik qilib; jur’atsiz, qat’iyatsiz kun kechirayotgan; taqdir savollari oldida o’zini ojiz xisoblab, imkonsiz deb bilgan insonlar haqida fikr bildiradi. Maqolada adabiyotshunoslarning asar va uning qahramonlari haqidagi fikrlari ham o’rin olgan.

61. Yo’ldosh Solijonov “Baxramandlik” 2005/2,3

Maqolada Oybekning “Qutlug’ qon” romani bilan Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qiyoslanadi. Oybek “Qutlug’ qon”ning ustozini deb bilgan A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidan baxramand bo’lib yaratgani va aynan o’sha asarga taqlid qilib o’brazlar qo’shgani, ammo o’ziga xos mustaqil roman yaratgani haqida ma’lumot beriladi.

62. Mirzaahmad Olimov “Pafosni badiiylik me’zoni sifatida o’rganishga oid ayrim muloxazalar” 2005/2,3

Maqolada pafosni shakllantirish oddiygina turmush xaqiqatlariga sodiqlikdan boshlanadi degan fikr ilgari suriladi. Bunda Odil Yoqubov, Oybek, Sadridin Ayniy, Abdulla Qahhor, Xayridin Sultonov, Murod Muhammaaddo’s, Tog’ay Murod va boshqalarning asarlari misolida yoritib beriladi. Badiiy asar qimmatini belgilashning asosiy o’lchovlaridan biri ma’naviy-ahloqiy mezon deb ta’rif beriladi.

63. Nilufar Mirsaidova “Ajnabiy qahramonlar misolida” 2005/2,3

Maqolada XX asrning 20-yillaridan to 40-yillargacha ijod qilgan ijodkorlardan biri Shokir Sulaymon to’g’risida ma’lumot beriladi. Bunda Shokir Sulaymonning sho’rolar davrida kechirgan og’ir hayoti, uning asarlari va fojeali

o'limi tasvirlanadi. Yozuvchining "Djim va Ellen", "Formuza otasi", "Kim bu" hikoyalari va "Qul" deb atalgan sochma asarlari mazmuni bilan qisqacha tanishamiz.

64. Feruza To'laboyeva "Mirtemirning dastlabki tarjimasi" 2005/4

Maqolada shoir Mirtemirning dastlabki tarjimalari va ularning qay tarzda aks etgani haqida ma'lumot beriladi. Tarjimada ba'zi harflar o'rnida boshqalari, i harfining, umuman, qo'llanilmasligi va obrazlar, ruhiyat, holatlarning aks etishi va ularning tarjimasidagi kamchiliklar, yutuqlar ko'rsatib berilgan.

65. Shohida Karomova "Xotira tiniqligi: Shoir va uning shaxsiyati" 2005/4

Maqolada Jumaniyoz Jabborovning "Xayrat olami" asari va shoirning bolaligidagi voqealar va ona yer, ona tabiat haqida keng fikr yuritilgan.

66. Dilorom Saloxiy "Zamon, makon, ihvon" 2005/4

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar qarashlari misolida.

Ushbu maqolada zamon, makon, ihvon hikmati, shuningdek Alisher Navoiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoniylar hayotlari, asarlari haqida ma'lumot beriladi.

67. Shavkat Hayitov "Javonmardlik haqiqati" 2005/4

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniylar yohud javonmardlik tariqati" asari va unda takya haqidagi fikrlar maqolada aaks ettiriladi. Yana maqolada Paxlavon Maxmud va Alisher Navoiyning do'st ekanligi hamda do'stlikning belgilari haqida fikr bildiriladi.

68. Raxmatillo Barakayev, Baxshillo Ashur “Samimiyatdan tug’ilgan satrlar” 2005/4

Maqolada taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning “Orzularim qo’shqanotim” nomli saylanmasi haqida ma’lumot beriladi. “Orzularim- qo’shqanotim” saylanmasida ona vatan va undagi go’zalliklarning aks etishi tasvirlab berilgan.

69. Qozoqboy Yo’ldosh “Kechadan bugunni istab” 2005/4

Maqolada Erkin Samandar ijodi haqida gapiriladi. Uning lirik qarashlari Yuraklarga solingan yo’l, nasriy asarlari Epik kengliklar imkoniyati hamda dramatik asarlari Dramatik to’lqinlar keskinligi bo’limlari ostida ko’rsatib beriladi. Ijodkorning “Yurakka yo’l” she’ri, “Tangri qudug’i” romani va “Arabmuhammad Bahodirhon” tragediyalari alohida ahamiyat kasb etishi ko’rsatib beriladi.